

OLIB QO'YISH TAKTIKASI

Sadullayeva Farida Farxod qizi

Termiz Davlat Universiteti Yuridik Fakulteti

3-kurs talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada dastlabki tergovda olib qo'yish tergov harakatining tushunchasi, asosiy vazifalari, ushbu faoliyatning bugungi kundagi holati va amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari, bundan tashqari dastlabki tergov faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va ularni qo'llash amaliyoti tahlili hamda ushbu faoliyat doirasida yuritiladigan protsessual hujjatlar, ushbu faoliyatdagi muammo va kamchiliklar, shuningdek, ayrim turdagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar, dastlabki tergovda olib qo'yish tergov harakatini tashkil etish bo'yicha boshqa xorijiy davlatlarning ilg'or xorijiy tajribasi hamda milliy qonunchiligimizdan farqli va o'xshash tomonlaridan foydalangan holda ushbu faoliyatni takomillashtirish yo'nalishlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Protsess, tintuv, olib qo'yish, davlat siri, immunitet, ajrim, sanksiya.

Аннотация: В статье рассматриваются понятие, основные задачи, современное состояние и особенности производства выемки в рамках предварительного расследования, анализ нормативных правовых актов, регулирующих предварительное расследование, и практики их применения, а также процессуальных документов, проводимых в рамках этой деятельности, проблемы и недостатки в этой деятельности, а также ряд предложений по устранению отдельных видов существующих проблем и недостатков, а также направления совершенствования этой деятельности с использованием передового зарубежного опыта других стран в организации производства выемки в рамках предварительного расследования, а также различий и сходств с отечественным законодательством.

Ключевые слова: Процесс, обыск, выемка, государственная тайна, иммунитет, постановление, санкция.

Annotation: In this article, the concept of the investigative action of seizure in the preliminary investigation, its main tasks, the state of this activity today and the specifics of its implementation, in addition, the analysis of regulatory legal acts regulating the activities of the preliminary investigation and the practice of their application, as well as procedural documents that are carried out within this, the preliminary investigation covered the advanced foreign experience of other foreign countries in the organization of the seizure investigative action and directions for

improving these activities using different and similar sides from our national legislation.

Keywords: process, search, seizure, state secret, immunity, verdict, sanction.

Shaxsga oliy ijtimoiy qadriyat sifatida yondashuv O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida o'z aksini topgan bo'lib, jinoyat-protsessual qonunining va uni qo'llash amaliyoti hamda Konstitutsiya talablariga mos bo'lishini taqozo qiladi. Chunki insonparvar, demokratik huquqiy davlat qurish yo'lida o'tkaziladigan barcha islohotlar insonning tinch va farovon hayot kechirishini ta'minlashga xizmat qilmog'i lozim. Bu esa hozirgi kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatga o'tish davrida inson omilini birinchi o'ringa olib chiqadi, zero jamiyatni tashkil etuvchi insonlarning barcha sohalaridagi, xususan, jinoyat sudlov ish yuritish faoliyatidagi faolligi kuchli jamiyat qurishning zaruriy shartidir.

Huquqiy davlat yuzaga keluvchi protsessual munosabatlarning shunday tartibini ta'minlashi lozimki, bu tartib jinoyatlarni ochish, aybdorlarni fosh qilish va jazolash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish yo'li bilan insonni, jamiyatni, davlatni jinoyatlardan muxofaza qilinishini ta'minlashi hamda huquqiy me'yorlarni hayotga tadbiq etish kafolatlarini belgilashi lozim.

Huquqiy taribga solishning to'la emasligi qonunning ayrim qoidalarini vakolatli shaxslar surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan o'z xohishlaricha talqin etilishiga imkon beradi, bu esa qonun buzilishiga hamda Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarni paymol etilishiga zamin yaratadi.

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichida eng muhim yo'nalishlaridan biri bu-qonun ustuvorligini va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun xal qiluvchi vazifa bo'lib qolmoqda...

Olib qo'yish-jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum bo'lgan hamda ularni qidirishning xojati bo'lmagan hollarda surishtiruvchi, tergovchining qarori yoki sudning ajrimi bilan ularni tegishli bo'lgan shaxsning egaligidan chiqarishga qaratilgan mustaqil tergov harakati.

Jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum bo'lib, ularni qidirishning xojati bo'lmasa, surishtiruvchi, tergovchi va sud ularni olib qo'yishga xaqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida hech kim qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari bironing turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emasligi belgilangan. Ayni damda JPK da jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni

aniqlash va aybdorlarni fosh etish maqsadida olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish va boshqa fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklaydigan tergov harakatlarini amalga oshirishning qat'iy tartibi belgilab berilgan.

Olib qo'yishning asosiy protsessual xususiyati shundaki, uni o'tkazish uchun jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum bo'lishi xamda ularni qidirishning xojati bo'lmasligi kerak. Shundagina olib qo'yish o'tkaziladi, aks xolda dastlab tintuv o'tkazilib, undan so'ngra olib qo'yish tergov harakati o'tkazilishi mumkin bo'ladi.

Olib qo'yishning quyidagi turlari mavjud :

- predmet va hujjatlarni olib qo'yish;
- davlat sirini yoxud boshqa, qonun tomonidan muhofaza etiladigan sirlar haqidagi ma'lumotlarga ega predmet va hujjatlarni olib qo'yish;
- pochta telegraf o'tkazmalarini olib qo'yish;
- diplomatik immunitetga ega shaxslardan olib qo'yish.

Olib qo'yish tintuvga juda ham o'xshashdir. Xuddi tintuv singari bu tergov harakati ham fuqarodan, shuningdek, turli xil korxona, muassasa va tashkilotlardan jinoiy ishga ahamiyati bo'lgan hujjat va predmetlarni olishga qaratilgan. Ammo tintuvdan farqli o'laroq olib qo'yish har doim aniq ma'lum bir buyum va hujjatlarga nisbatan, ular qayerda va kimda ekanligi aniq bo'lganda qo'llaniladi.

Olib qo'yishda qidiruv ishlariga hojat yo'q, binobarin, olib qo'yishni o'tkazishda fuqarolarning manfaatlariga ta'sir nisbatan kamroq bo'ladi. Olib qo'yishda tergovchining vazifasi biror-bir shaxsga yoki rahbarga ma'lum bir hujjatni yoki predmetni berishni taklif qilishdir. Rad javobi olinganda esa narsa yoki hujjatni majburiy olib qo'yish qo'llaniladi.

Davlat siriga ega bo'lgan hujjatlarni olib qo'yish holatlaridan tashqari olib qo'yish uchun prokurorning sanksiyasi talab qilinmaydi. Olib qo'yish diplomatik vakolatxonalar joylashgan yerlarda yoki ularning oila a'zolari istiqomat qiladigan joylarda o'tkazilsa, ularning roziligi bilan va albatta prokuror va Tashqi ishlar vazirligi xodimi huzurida o'tkazilishi zarur.

Olib qo'yishda ishtirokchilar doirasi xuddi tintuvdagi singaridir. Tintuvda qo'llaniladigan asosiy tavsiyalar olib qo'yishga nisbatan ham ishlatilishi mumkin. Agar ma'lum bir joyda kerakli hujjat yoki predmetlar bo'lmasa, ularni boshqa yerdan qidirish mumkin emas, chunki unda bu olib qo'yish emas, tintuv bo'ladi.

Olib qo'yish tintuvning bir qismi emas, balki mustaqil tergov harakatidir. Olib qo'yishda aynan ish uchun ahamiyatli narsani yoki hujjatning nusxasini emas, uning aslini olishni ta'minlash zarur. Ana shunday xavf-xatar mavjud bo'lganda, olib qo'yishga tintuvdagi singari mutaxassisni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Masalan, buxgalteriya hujjatlarini olib qo'yishda revizor, auditor yoki ekspertni taklif qilish zarur.

Agar o'g'irlangan (tortib olingan, tamagirlik yo'li bilan olingan) buyumlarni olib qo'yish ko'zda tutilgan bo'lsa, jabrlanuvchini taklif qilish mumkin.

Olib qo'yishni muvaffaqiyatli o'tishi ko'p hollarda tergovchining olib qo'yilayotgan shaxs bilan, olib qo'yish o'tkazilayotgan tashkilot vakili bilan aloqasiga bog'liq. Bunday vaziyatda shuningdek, kuzatuvchanlik va kerakli hamma narsa olinganligiga ishonch ham katta ahamiyatga ega. Agar tergovchi obyektlarni yashirilganligini his qilsa, u holda tintuv haqida qaror chiqaradi va tintuvga kirishadi.

Agar surishtiruvchi, tergovchi va sud jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lsalar ularni olib qo'yishga haqlidir (JPK 157-m.). Bunday olib qo'yish surishtiruvchi yoki tergovchining qarori yoxud sudning ajrimi bilan amalga oshiriladi. Ushbu hujjatlarda qayerda va kimnikida olib qo'yish tergov harakatini amalga oshirish kerakligi, qanday narsa va hujjatlar olib qo'yilishi lozimligi ko'rsatiladi (JPK-159-m.). Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishda xolislar, ayrim hollarda esa mutaxassis va tarjimon ham ishtirok etadilar. Bunda olib qo'yish jarayonida bu harakat uyida o'tkazilayotgan shaxsning ishtirok etishi ta'minlanishi lozim.

Agar davlat sirlariga ega bo'lgan narsa va hujjatlar olib qo'yiladigan bo'lsa, olib qo'yish haqidagi qarorga prokurorning sanksiyasi olinishi kerak. Bunday olib qo'yish chog'ida davlat sirlarini bilishga ruxsat etilgan xolislar ishtirok etgani ma'qul.

Tintuv qilinayotganlarga, xolislariga, mutaxassislarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlarning vakillariga olib qo'yish o'tkazilishidan avval ularning surishtiruvchi yoki tergovchining barcha harakatlari chog'ida hozir bo'lish hamda ana shu harakatlar xususida arz qilish huquqlari tushuntirilishi kerak. Bunday arz bayonnomaga kiritilishi shart (JPK-160-m.).

Surishtiruvchi yoki tergovchi olib qo'yish haqidagi qarorga yoki ajrimga asosan turar joyga yoki boshqa binoga kirishga haqlidir. Bunda ular olib qo'yish o'tkazilayotgan shaxsni qaror yoki ajrim bilan tanishtirib imzo qo'ydirishi shart.

Surishtiruvchi, tergovchi olib qo'yish chog'ida qaror yoki ajrim bilan tanishtirilgandan so'ng olinishi lozim bo'lgan narsa va hujjatlarni ixtiyoriy ravishda berishni taklif qiladi, taklif rad etilgan taqdirda majburiy ravishda oladi. Agar bu narsa va hujjatlar olib qo'yishni amalga oshirish to'g'risidagi qarorda yoki ajrimda ko'rsatilgan joydan topilmasa, u holda tintuv o'tkaziladi.

Olinayotgan narsa va hujjatlarning hammasi xolislariga, olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishda ishtirok etgan boshqa shaxslarga ko'rsatiladi, bayonnomada to'liq aks ettiriladi, zarurat bo'lgan taqdirda o'ralib, muhrlanadi. O'ralgan va muxrlangan narsa va xujjatlarni keyingi tergov davomida ochishga faqat xolislar ishtirokida yo'l qo'yiladi.

Olib qo'yish majburiy ravishda amalga oshirilganligi sababli, yopiq binolar yoki buyumlar saqlanadigan joyni uning egasi o'z ixtiyori bilan ochib berishdan bosh tortsa,

surishtiruvchi yoki tergovchi ularni ochishga xaqlidir. Bunda zarurat bo'lmaganda qulflar, eshiklar va boshqa narsalarning shikastlantirilishiga yo'l qo'yilmasligi hamda uydagi saranjomlik buzilmasligi lozim (JPK 161-m.).

Surishtiruvchi yoki tergovchi shaxsning kiyimlari, shuningdek uning yonidagi buyumlari ichidan yoki badanidan topilgan, ish uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarni olib qo'yishi mumkin.

Sud tomonidan o'tkazilgan narsa va hujjatlarni olib qo'yish natijalari sud majlisi bayonnomasida aks ettiriladi. Bayonnomada narsa va hujjatlarning aynan qayerda va qanday sharoitda topilganligi, ixtiyoriy ravishda berilganligi yoki majburiy ravishda olinganligi ko'rsatilishi lozim. Barcha olingan narsa va hujjatlar bayonnomada birma bir qayd qilinib, ularning miqdori, o'lchovi, og'irligi, har qaysisining o'ziga xos belgilari ko'rsatilishi, zarurat bo'lgan taqdirda o'ralishi va muhrlanishi lozim.

Olib qo'yish vaqtida izlanayotgan narsa va hujjatlarni yo'q qilishga yoki yashirishga urinish hollari sodir bo'lgan taqdirda, bu xol surishtiruvchi yoki tergovchi ko'rgan choralarni ham ko'rsatilib bayonnomada aks ettirilishi lozim (JPK 163-m.).

Olib qo'yish to'g'risidagi qaror va bayonnomaning nusxasi sud majlisining olib qo'yishni o'tkazish to'g'risidagi bayonnomasidan ko'chirma tintilgan shaxsga yoki uning voyaga yetgan oila a'zolariga, ular bo'lmagan taqdirda esa, tegishli hokimlik yoxud fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi vakiliga topshirilib, tilxat olinadi. Zarur hollarda mazkur shaxslarga olib qo'yilayotgan hujjatlarning nusxalari beriladi (JPK 164-m.).

Pochta telegraf jo'natmalarini olib qo'yish anchagina o'ziga xos jihatlarga ega. Bu xarakat jinoyat protsessual harakatida pochta telegraf jo'natmalarini xatlash deb nomlangan (JPK 166-m.).

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va boshqa shaxslarga yuborgan yoxud boshqa shahslar gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yuborgan pochta telegraf jo'natmalarida sodir etilgan jinoyatga doir ma'lumotlar yoki ish uchun ahamiyatga molik xujjatlar va buyumlar bor deb gumon qilish uchun yetarlicha asoslar bo'lganda, surishtiruvchi, tergovchi, sud bu shaxslarning barcha pochta telegraf jo'natmalarini yoki ularning ayrimlarini xatlab qo'yishga haqlidir.

Xatlab qo'yilishi mumkin bo'lgan pochta telegraf jo'natmalariga barcha turdagi xatlar, telegrammalar, radiogrammalar, banderollar, posilkalar, pochta konteynerlari kiradi.

Pochta telegraf jo'natmalarini xatlash surishtiruvchi yoki tergovchining qarori bilan rasmiylashtiriladi. Unga albatta prokurorning sanksiyasi olinadi. Sud esa bunday xatlash uchun ajrim chiqaradi.

Qaror yoki ajrimda: jo'natmalari ushlab turilishi lozim bo'lgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, bu shaxsning aniq manzili; xatlanayotgan pochta telegraf jo'natmalarining turi; xatlash chorasining muddati; jo'natmalarni ushlab turish

va bu haqida surishtiruvchi yoki tergovchiga ma'lum qilish qaysi aloqa muassasasiga yuklatilganligi ko'rsatiladi.

Sud ajrimida pochta telegraf jo'natmalarini sudga yetkazib berish haqida aloqa muassasasiga ko'rsatma berilishi lozim. Pochta telegraf jo'natmalarini xatlash haqidagi qaror yoki ajrim tegishli aloqa muassasasining boshlig'i nomiga yuboriladi va uni bajarish mazkur boshliq uchun majburiydir. Bu qarorni yoki ajrimni bajarmaslik yoki uning oshkor etilishi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Aloqa muassasasining raxbari surishtiruvchi, tergovchining qarorida yoki sudning ajrimida ko'rsatilgan xat - xabarlar va boshqa jo'natmalarni ushlab turishi xamda bu xaqda xatlash tashabbuskoriga darhol ma'lum qilishi kerak (JPK 166-m.). U o'z navbatida bunday xat - xabarlar va boshqa jo'natmalarni ko'zdan kechiradi va olib qo'yadi.

Surishtiruvchi yoki tergovchi aloqa muassasasiga borib, ushlangan pochta telegraf jo'natmalarini xolislar ishtirokida, zarurat bo'lganda esa, tegishli mutaxassis ishtirokida ochib, ko'zdan kechiradi. Ish uchun ahamiyatga molik ma'lumotlar, hujjatlar, narsalar topilgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi pochta telegraf jo'natmalarini olib qo'yadi yoxud ulardan nusxa ko'chirish bilan cheklanadi. Agar ko'zdan kechirilgan jo'natmalarda ish uchun ahamiyatga molik ma'lumotlar, hujjatlar, narsalar bo'lmasa, surishtiruvchi, tergovchi ularni egalariga yetkazish yoki o'zi belgilagan muddatgacha ushlab turish haqida ko'rsatma beradi.

Ushlangan jo'natmalar ko'zdan kechirilgan har bir holda bayonnoma tuziladi. Unda qaysi pochta telegraf jo'natmalari ko'zdan kechirilganligi, nimalar olinganligi va nimalar egalariga yuborilishi, nimalar esa vaqtincha ushlab qolinishi kerakligi, qaysi jo'natmalardan nusxalar olinganligi ko'rsatilishi lozim (JPK 167-m.).

Pochta telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish chorasini qo'llashga zarurat qolmasa, xatlab qo'ygan surishtiruvchi, tergovchi yoki sud bu chorani bekor qiladi. Dastlabki tergov davomida ish tugatilganda, birinchi instansiya sudida esa ishni tugatish xaqida ajrim chiqarilganda yoxud hukm qonuniy kuchga kirgach, xatlab qo'yish chorasi bekor qilinishi lozim (JPK 168-m.).

Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishda xolislar, zarurat bo'lgan taqdirda mutaxassis va tarjimon xam ishtirok etadilar.

Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish jarayonida bu harakatlar uyida o'tkazilayotgan shaxsning o'zi yoki xech bo'lmaganda uning voyaga yetgan oila a'zolaridan birining ishtirok etishi lozim. Basharti ularning ishtirok etishini ta'minlashga imkon bo'lmasa, tegishli hokimlik yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining vakili taklif etiladi.

Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlar joylashgan binolarda olib qo'yish yoki tintuv ularning vakillari ishtirokida o'tkaziladi.

Tintuv qilinayotganlarga, xolislarga, mutaxassislarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, harbiy qismlarning vakillariga tintuv yoki olib qo'yish o'tkazilishidan avval ularning surishtiruvchi yoki tergovchining barcha harakatlari chog'ida xozir bo'lish xamda ana shu harakatlar xususida arz qilish huquqlari tushuntirilishi kerak. Bunday arz bayonnomaga kiritilishi shart.

Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishda tarjimon xam ishtirok etishi mumkin bo'lib, JPK ning 71-moddasidan kelib chikkan holda, olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish chog'ida tarjimon ushbu tergov xarakati ishtirokchilari ish yuritilayotgan tilni bilmasa yoki yetarli darajada bilmasa yoinki kar yoki soqov bo'lsa chaqirtiriladi.

Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishda xolislar ushbu tergov harakatining o'tkazilganini, uni o'tkazish jarayoni va natijalarini tasdiqlash uchun chaqiriladi. Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishda ishtirok etish uchun xolis sifatida ishning oqibatidan manfaatdor bo'lmagan, kamida ikki nafar voyaga yetgan fuqaro chaqirilishi lozim. Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazishni boshlashdan oldin surishtiruvchi yoki tergovchi xolislarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi...

Olib qo'yish tergov harakatida xorijiy davlatlar qonunlariga e'tibor bermaslik mumkin emas.

Jinoyatlarga doir ish yurituv sohasi juda dolzarb va muhim ahamiyat kasb etishi bois, har bir davlat o'z milliy qonunchiligida bu sohani tartibga solib turuvchi alohida qonun tizimini yaratadi. Biroq har bir davlatning o'z milliy qonunchiligida jinoyat ishlarini yuritishga doir ma'lum tartib va qoidalar o'ziga xos xususiyatlari bilan bir biridan farq qiladi.

Xorijiy davlatlar qonunchiligida tergov harakati sifatida olib qo'yish bilan bog'liq protsessual tartibga oid qoidalar mazmuni, ularning yutuq va kamchiliklarini o'zaro qiyosiy o'rganish orqali narsa va olib qo'yish tergov harakatini tartibga solib turuvchi milliy qonunchilikni takomillashtirish borasida ijobiy natijalarga erishish imkoniyati tug'iladi.

Shu maqsadda ayrim davlatlar qonunchiligida olib qo'yish tergov harakatining tartibga solinishini qiyosiy jihatdan qarab chiqamiz. Avvalo, mamlakatimizning qonunchilik tizimiga o'xshash bo'lgan Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarining qonunlarini tahlil qilib chiqamiz.

Rossiya Federatsiyasining 2001-yil 18-dekabrda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksida olib qo'yish usuli sifatida turli xil tergov harakatlari aks etgan, shuningdek, ushbu tergov harakatlarini o'tkazish asoslari, tartibi va shartlari hamda rasmiylashtirish xususiyatlari ham qayd etilgan.

Qozog'iston Respublikasining 1997-yil 13-dekabrda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksida ham olib qo'yish usuli sifatida tergov harakatlaridan foydalanish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual qonuni tahririga yaqin bo'lib, unda ham

tergov harakatlarini o'tkazish asoslari, shartlari va tartibi bilan bog'liq qoidalar qayd etilgan.

Tojikiston Respublikasining 2009-yil 3-dekabrda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksida ham olib qo'yish usuli sifatida tergov harakatlaridan foydalanish qayd etilgan.

Turkmaniston Respublikasida amalda bo'lgan Jinoyat-protsessual kodeksda ham tergov harakatlari turlari, ularni o'tkazish asoslari va tartibi belgilab o'tilgan bo'lib, unda aks etgan qoidalar bizning JPKda ham ifodalangan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan MDH davlatlarining Jinoyat-protsessual kodekslariga ko'ra tergov harakatlarini o'tkazish vakolati sudga qadar ish yuritish bosqichida surushtiruvchi, tergovchi, prokuror zimmasiga yuklatilganini ko'rishimiz mumkin. Qozog'iston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilanishicha tergov harakatlari dastlabki tergov bosqichida surishtiruvchi, tergovchi va prokuror tomonidan o'tkaziladi. Olib qo'yish deb nomlangan 33-bob, 259-261-moddalarni o'z ichiga oladi va unda ushbu tergov harakatini o'tkazish bilan bog'liq qoidalar qayd etilgan. Ushbu moddalarda qayd etilgan qoidalarni tahlil qiladigan bo'lsak, o'ziga xos bo'lgan holatlarni ko'rishimiz mumkin.

Qozog'iston Respublikasi JPKda uchta modda olib qo'yish tergov xarakatini tartibga solib turadi. O'zbekiston JPKdan faqli ravishda ushbu tergov harakati bilan bog'liq qoidalar birmuncha ixchamroq tarzda ifoda etilgan, xususan olib qo'yish tergov harakatini qonunda ikki xil turi nazarda tutilgan. Birinchi turi sifatida 259-moddada olib qo'yish shaxslarning tashabbusiga ko'ra dastlabki tergovni olib boruvchi vakolatli shaxsga taqdim etilishi nazarda tutilgan. Ikkinchi tur sifatida esa 260-moddada olib qo'yish dastlabki tergovni olib borayotgan shaxsning talabiga binoan taqdim etilishi nazarda tutilgan.

Yuqordagi moddalar tahlili shuni ko'rsatadiki olib qo'yish shaxslar tomonidan ish yuritishga ma'sul bo'lgan organlarga taqdim qilinishi yagona modda tarkibida bo'lib, narsa va hujjatni ish yuritishga ma'sul bo'lgan organlar talabi bilan taqdim etish ham bir modda tarkibida aks ettirilgan.

Shaxslar tomonidan o'z ixtiyorlari bilan ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa va hujjatlarni olib qo'yish bo'yicha qayd qilingan qoidalar bizni qonunchiligimizga yaqin holatda bayon qilingan. Bunda asosiy farqli jihatlar ish yuriishga vakolatli organlar tomonidan shaxslardan talab qilinganda ko'zga tashlanadi. Bizni qonunchiligimizda asosan talab qilish surushtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan jinoyat protsessining dastlabki tergov va sud tergov boqichlarida fuqarolardan, korxona, muassasa tashkilotlardan talab qilish mumkin bo'ladi. Qozog'iston Respublikaasi JPKning 260-moddasiga asosan esa ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan narsa va hujjatlarni talab qilish faqat dastlabki tergov bosqichida amalga oshirilishi mumkinligi belgilab o'tilgan. Shu bilan birga ushbu modda tarkibiga kiruvchi vakolatli shaxslar

tomonidan hujjatlarni talab qilish ham belgilan bo'lib, bu qoidalar ham bizniki bilan bir xilda aks etgan.

Muayyan shaxslar tomonidan olib qo'yilishi lozim bo'lgan narsa va hujjatlar ixtiyoriy taqdim qilinganda ham, vakolatli shaxslar tomonidan talab qilinganda ham bizni qonunchilik bilan bo'ladigan umumiy farq sifatida bizda talab qilib oladigan shaxslar sifatida narsani talab qilishda surishtiruvchi, tergovchi va sud hujjatni talab qilishda esa ushbu shaxslarga qo'shimcha sifatida prokuror nazarda tutilgan.

Qozog'iston JPKda esa olib qo'yilishi lozim bo'lgan narsa va hujjatlarni taqdim qiladigan shaxs sifatida ham talab qilib oladigan shaxs sifatida ham muayyan shaxslar doirasi nazarda tutilmagan, balki sudga qadar ish yuritishga vakolatli shaxslar deb belgilangan. Olib qo'yilishi lozim bo'lgan narsa va hujjatlarni taqdim qilish bayonnomasi yuzasidan Qozog'iston Respublikasi JPKda belgilangan qoidalar bizni qonunchilikdagi bilan bir xil.

Olib qo'yish tergov xarakatini horijiy mamlakatlar Jinoyat-protsessual qonunchiligida tartibga solinishi yuzasidan izlanishlar davomida Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Ozarbayjon, Moldaviya va Ukraina davlatlarining Jinoyat-protsessual qonunchiligining mavzuga aloqador jihatlari quyidagicha ekanligi aniqlandi. Xususan yuqoridagi barcha mamlakatlarda olib qo'yish tergov harakati isbotlashning umumiy shartlarida dalillarni to'plash turi sifatida bo'lib, bu ushbu harakat natijasida ham dalillar to'planishi mumkinligini anglatadi. MDX davlatlaridan O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari JPKda ushbu tergov xarakatini amalga oshirish qoidalari alohida bobda jamlangan holda aks etgan. Olib qo'yish tergov harakati tartibga soluvchi normalar alohida bobda aks etmagan davlatlarning jinoyat sudlov sohasidagi ish yuritish amaliyotini tahlil qiladigan bo'lsak ular faqatgina taqdim qilish bayonnomasi bilangina ushbu jarayonni rasmiylashtirishlari ma'lum bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, dastlabki tergovda ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan olib qo'yishning protsessual tartibi yuzasidan yozilgan maqolani yakunlar ekanman, ushbu tergov harakati bilan bog'liq ba'zi muammolarning borligini angladim. Shu bilan birga muammolarning tahlili quyidagi xulosalarga kelishga, Jinoyat-protsessining qonun normalarini takomillashtirishga oid takliflarni va ularni qo'llash amaliyotini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi. Ularning asosiylarini quyidagilar tashkil etadi.

Olib qo'yish tergov harakatining qo'llash samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tavsiya va takliflar:

1-muammo. Olib qo'yish tergov harakatini o'tkazishda surishtiruvchi va tergovchi tomonidan lozim darajada tayorgarlik ko'rmaslik buning natijasida kutilmagan to'siqlarning vujudga kelishi.

1-muammo yuzasidan taklif. Surishtiruvchi, tergovchi olib qo'yish tergov harakatini o'tkazishdan oldin, olinishi lozim bo'lgan narsa joylashgan hududni puxta o'rganib chiqishi, hududga ma'sul shaxslar bilan (o'zini o'zi boshqarish organi vakili, profilaktika inspektori) hamkorlik qilgan holda ushbu tergov harakatiga jiddiy yondashishi, natijada vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammo va to'siqlarni (xonadonda qopag'on itning bo'lishi yoki uy egasining zo'rlik, qurol ishlatish bilan qo'rqitish orqali tergov harakatini o'tkazishga halaqit berishga urinishi) oldini olishda samarali yordam beradi deb hisoblayman.

2-muammo. Amaliyotda ba'zi hollarda olib qo'yish tergov harakati yakunlanganidan so'ng, bayonnoma nusxasi narsasi olib qo'yilgan shaxsga berilmayotganligi va natijada olib qo'yilgan narsa ish yakunlanganidan so'ng o'z egasiga qaytarish chog'ida soni va sifati jihatidan muammo kelib chiqishi holatlari uchrab turibdi.

2-muammo yuzasidan taklif. Olib qo'yish bayonnomasi nusxasini narsa olingan xonadon yoki joy egasiga berilmasligi tergov harakatini olib borgan surishtiruvchi yoki tergovchiga chora ko'rilishini belgilash lozim.

3-muammo. Olib qo'yish bayonnomasini rasmiylashtirilishida xolislarning soxtaligi va bayonnomaning xolislarga to'liq tanishtirilmasligi.

3-muammo yuzasidan taklif. Olib qo'yish bayonnomasida ishtirok etgan xolislarning pasport nushalarini ishga ilova qilish va ishni sudda ko'rish mobaynida olib qo'yish bayonnomasida ishtirok etgan xolislarning haqiqiylikini tekshirib ko'rish, zarur bo'lsa ularni sudda ishtirok etishini ta'minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I Qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 76 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2018 yil 1 dekabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Rasmiy nashr / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. – 512 b.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi ('017 yil 1 dekabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Rasmiy nashr / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. – 736 b.
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (2017 yil 1 dekabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). Rasmiy nashr / O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. – 504 b.
5. O'zbekiston Respublikasining «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi (yangi tahriri) 2012 yil 24 dekabr qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2012. – № 52. – 583-m.

II O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. O'zbekiston 2019 yil.

2. O'zbeiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2016 yil 23 sentabrgacha bo'lgan o'zgartirishlar bilan. Toshkent “Adolat” nashri 2016 yil.

3. O'zbeiston Respublikasi Jinoyat Protsessual kodeksi 2016 yil 23 sentabrgacha bo'lgan o'zgartirishlar bilan. Toshkent “Adolat” nashri 2016 yil.

4. O'zbeiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining “Dalillar maqbulligiga oid Jinoyat Protsessual normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi 2004 yil 24 sentabrdagi 12-son qarori.

5. O'zbeiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining Jinoyat ishlari bo'yicha ashyoviy dalillarga oid qonunchilikni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi 2012 yil 13 dekabr 17-qarori.

6. Surishtiruv, Dastlabki tergov va sud muxokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va mol-mulkni olib qo'yish, qabul qilish, xisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma. 2010 yil 29 dekabr 2174-son bilan Adliya Vazirligidan ro'yxatdan o'tgan.

III Maxsus va asosiy adabiyotlar:

1. A.X.Raxmonqulov, D.M.Mirazov. “Dastlabki Tergov” darsligi Toshkent 2012 yil 301-308 betlar.

2. B.A.Mirenskiy, A.X.Raxmonqulov. D.Kamolxo'djaev, B.A.Sidov. “Jinoyat Protsessi” darslik Toshkent 2012 yil 176-180 betlar.

3. T.A.Abdumajidov, Z.F.Inog'omjonova, B.B.Xidaetov. “Jinoyat Protsessual huquqi” darsligi. Toshkent 2015 yil 346-348 betlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual kodeksiga sharxlar. Masul muxarrir Abdumajidov. Toshkent 2008 yil 562-573 betlar.

5. Qo'shaev.N.M, Fayziev.Sh.F, “Jinoyat protsessida o'tkaziladigan tergov xarakatlari” TDYuI 2007 yil 273-295 betlar.

6. Dastlabki tergov faoliyati psixologiyasi darsliik O'zR IIV Akademiyasi Toshkent 2015 yil 293-295 betlar.

7. Saxaddinov.S.M. O'zbekiston ruspublikasi Jinoyat Protsessual ko'deksiga sharxlar umumiy qisim. Toshkent 2015 yil 381-391 betlar.

IV Foydalanilgan internet saytlar ro'yxati:

- www.google.ru
- www.norma.uz
- www.tma.uz
- www.lex.uz
- www.lawtheses.com
- www.legislationline.org
- www.referat.arxiv.uz
- www.library.uz
- www.ziynet.uz
- www.qoraqalpoq.adliya.uz
- www.prokuratura.uz
- www.akadmvd.uz
- www.ziyouz.com
- www.elibrary.karsu.uz
- www.uzbekistan.site
- www.elections.uz